

Qattiq parda sinuslari

Qattiq pardaning ustki va pastki qatlamlari ba'zi joylarda bir-biridan ajralib uzoqlashadi. Buning natijasida bo'shliqlar hosil bo'ladi va ularga *qattiq parda sinuslari (sinus durae matris)* deyiladi. Sinuslar ichida venoz qon to'planib oqadi. Shu bois ular *venoz sinuslar* deb ham ataladi. Ba'zi darsliklarda *bosh miya sinuslari* atamasi qo'llaniladi.

Qattiq pardaning quyidagi sinuslari farqlanadi:

1. **Yuqori sagital sinus (sinus sagittalis superior)** – *falx cerebri* ning ustki qirrasi bo'ylab joylashgan. Ensa tomonga tushayotib ko'ndalang sinusga qo'shilib ketadi.
2. **Pastki sagital sinus (sinus sagittalis inferior)** – *falx cerebri* ning pastki qirrasi bo'ylab joylashgan va to'g'ri sinusga qo'shilib ketadi.
3. **To'g'ri sinus (sinus rectus)** – yuqori va pastki sagital sinuslarning orqa uchlarini qo'shib turadi va ko'ndalang sinusga ochiladi.
4. **Ko'ndalang sinus (sinus transversus)** – miyacha chodirining orqa chekkasi bo'ylab joylashgan yo'g'on sinus. Ensa suyagining ko'ndalang egatida yotadi. Chap va o'ng tomondagi ko'ndalang sinuslar ensa suyagining ichki bo'rtig'i (*protuberantia occipitalis interna*) sohasida o'zaro birlashadi.
5. **Sigmasimon sinus (sinus sigmoideus)** – ikkala tomondagi ko'ndalang sinuslarning S-simon shaklda egilib pastga tushib kelayotgan qismi. Chakka suyagining sigmasimon egatida yotadi. Bu sinus *foramen yugulare* dan o'tgach ichki bo'yintiriq vena (*v. jugularis internus*) nomi bilan davom etadi. Agar pastdagi rasmga e'tibor qilsangiz, *v. jugularis internus* sinuslarda to'plangan venoz qonni kalla suyagi (*cranium*) ichidan olib chiqib ketuvchi eng yirik vena ekanligiga guvoh bo'lasiz.
6. **Kavernoz sinus (sinus cavernosus)** – kalla suyagining pastki qismida turk egari chekkasi bo'ylab joylashgan. Ushbu sinus boshqa sinuslarga qaraganda katta klinik ahamiyatga ega. Chunki uning ichida simpatik tolalar bilan o'ralgan *a. carotis interna* yotadi. Shuningdek, bu sinusning tashqi devori bo'ylab III, IV, VI nervlar va V nervning 1-shoxi (*ramus ophthalmicus*) o'tadi.

7. **Ensa sinusi (sinus occipitalis)** – katta ensa teshigining yon tomonida joylashgan. Sigmasimon sinusga qo'shilib ketadi.
8. **Yuqori toshsimon sinus (sinus petrosus superior)** – kavernozi sinusdan boshlanuvchi sinus. Ikkala tomondagi chakka suyagining yuqori toshsimon egatida yotadi va ko'ndalang sinusga qo'shilib ketadi.
9. **Pastki toshsimon sinus (sinus petrosus inferior)** - ensa va chakka suyaklari bo'ylab o'tuvchi pastki toshsimon egatda yotadi va sigmasimon sinusga qo'shilib ketadi.
10. **Interkavernal sinus (sinus intercavernosus)** – turk egari atrofida ikkala tomondagi kavernozi sinuslarni o'zaro birlashtirib yopiq venoz aylana hosil qiluvchi sinus.

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz